



9 sinf Algebradan 1 – BSB savollari


1. $y = x^2 - 2x + 5$ funksiya uchun quyidagilarni aniqlang: (4 ball)

- 1) $x = 3$ bo'lganda funksiya qiymatini;
- 2) $y = 5$ bo'ladigan x ning qiymatlarini.

2. $y = 3x^2$ va $y = x + 4$ funksiyalar grafiklari kesishish nuqtalarining koordinatalarini toping. (5 ball)


3. Agar parabola $(1; 5)$ nuqta orqali o'tishi va uning uchi $(4; -4)$ nuqtada bo'lishi ma'lum bo'lsa, parabolaning tenglamasini tuzing. (5 ball)

4. $y = -x^2 - 2x + 3$ funksiya grafigini yasang. (6 ball)



5. Kvadrat funksiyaning berilgan grafigi bo'yicha quyidagilarni aniqlang: (5 ball)

- 1) funksiya qiymatlari musbat va manfiy bo'ladigan x ning qiymatlarini;
- 2) funksiyaning o'sish va kamayish oraliqlarini;
- 3) funksiyaning eng katta yoki eng kichik qiymatini.





Baholash mezonlari

№	Ball	Javob	Deskriptor
1	4	1) $y = 8$; 2) $x = 0$ va $x = 2$	1) Funksiya qiymatini to'g'ri topsa, 2 ball ; 2) x ning qiymatlaridan bittasini to'g'ri topsa, 1 ball ; ikkalasini ham to'g'ri topsa, 2 ball . Jami: 4 ball .
2	5	$(-1; 3)$ $(\frac{4}{3}; \frac{16}{3})$	1) Funktsiyalarni tenglashtirib kvadrat tenglama tuza olsa, 1 ball ; 2) Tuzilgan kvadrat tenglamaning ildizlaridan bittasini to'g'ri topsa, 2 ball ; ikkalasini ham to'g'ri topsa, 3 ball ; 3) Funktsiyalar kesishish nuqtalaridan birining koordinatasini to'g'ri topsa, 4 ball ; ikkalasini ham to'g'ri topsa, 5 ball .
3	5	$y = x^2 - 8x + 12$	1) $y = a(x - x_0)^2 + y_0$ parabola tenglamasini yoza olsa, 2 ball ; 2) Parabola tenglamasini yozib, berilgan parabola uchini tenglamaga qo'ya olsa, 3 ball ; 3) Parabola tegishli nuqtani tenglamaga qo'yib, a ga nisbatan tenglama tuza olsa, 4 ball ; 4) Tenglamadan a ning qiymatini topib, parabola tenglamasini tuza olsa, 5 ball .
4	6	1) $(-1; 4)$ 2) $(-3; 0)$, $(1; 0)$, $(0; 3)$ 3) $(-2; 3)$	1) Parabola uchi koordinatalarini to'g'ri topsa, 1 ball ; 2) Koordinata o'qlari bilan kesishish nuqtalarini to'g'ri topsa, har biriga 1 ball dan jami 3 ball ; 3) $(0; c)$ nuqtaga $x = x_0$ simmetrik nuqtani topa olsa, 1 ball ; 4) Yuqoridagi nuqtalarni topa olsa, jami 5 ball ; 5) Yuqoridagi nuqtalarni tutashtirib funksiya grafigini chiza olsa, 6 ball .
5	5	1) $x < -3$ va $x > 1$ da manfiy; $-3 < x < 1$ da musbat; 2) $x \leq -1$ da o'sadi; $x \geq -1$ da kamayadi; 3) $y = 5$ eng katta qiymat.	1) Funksiya musbat yoki manfiy qiymatlar qabul qiladigan x ning qiymatlarini to'g'ri topsa, 1 ball ; Ikkalasini ham to'g'ri topsa, 2 ball ; 2) O'sish yoki kamayish oralig'ini to'g'ri topsa, 1 ball ; Ikkalasini ham to'g'ri topsa, 2 ball ; 3) Eng katta qiymatini to'g'ri topsa, 1 ball ; Jami 5 ball
Topshiriqlarni boshqa usullar bilan to'g'ri va to'liq yechgan bo'lsa, bu topshiriq uchun ajratilgan maksimal ballni berish mumkin			
Jami:	25 ball		